

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA YOZISHNI O'RGATISH BOSQICHLARI

**G.Z.Eshbekova**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Sirtqi bo'lim, Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va ota-onalarga tavsiyalar, hamda yozishga o'rgatishda maslahatlarga amal qilish vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, ta'lim, kesma harflar, yozish mashqlari, bola, usullar, qo'l mushaklari, bilim, ko'nikma, malaka.

### KIRISH

Bugungi jamiyatda maktabgacha yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish, savodxonligini oshirish ta'lim tizimining dolzarb vazifasidir. Chunki maktabgacha ta'limdan keyingi ta'lim ham juda murakkabligi ya'ni bundan bir necha yillar oldingi ta'lim rejasidan butkul farqliligi bilan ajralmoqda. Bizning vaqt - o'zgarishlar davri. Hozirgi davrda bizga nostandart qarorlar qabul qilishga qodir, ijodiy fikrlashga qodir insonlar kerak. Intelektual salohiyatli insonlarni bugundan boshlab kashf qilish kerak. Bola shaxsiga eng zarur bo'lgan yozish ko'nikmasi aynan 5-6 yoshida shakllantiriladi. Yozishga o'rgatish ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozishga o'rgatish ishini ko'pgina horijiy olimlar tadqiq qilishgan. Taqdiqotlarning barchasida amaliyot bosqichlari hisobga olingan bo'lib, unda bolalarning qiziqishi ishtiyoqi hisobga olinadi. Yozishga o'rgatish jarayonida bajariladigan mustaqil ishlarga turli predmetlar shaklini chizish, bir xil oraliqni mo'ljallab nuqtalar qo'yish, yotiq to'g'ri chiziqlar chizish, ayrim harflar elementlarini yozish, rasmga qarab savollarga javob berishga tayyorlanish, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlarni kiritish mumkin.<sup>1</sup> Alifbo davrida esa harf terish kartoni va abak yordamida turli xil analitik-sintetik ishlarni uyushtirish, rasm asosida suhbat, ovoz chiqarib takrorlab o'rganiladi. Yozishga o'rgatish jarayonida esa bolalarning bosh barmog'i asta-sekin o'sib boruvchi tezlikda, o'rta, halqa va kichik barmoqlar bilan navbatma-navbat halqaga bog'lanadi. Buni to'g'ridan-to'g'ri tartibda ham qilishingiz kerak – ko'rsatkich barmog'idan kichik barmog'igacha va

teskari tartibda. Avval har bir qo‘l bilan alohida, keyin birga. Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. Bu metodga dastlab pedagog olim K.D.Ushinskiy<sup>1</sup> tomonidan asos solingan. Olimlarning fikriga ko‘ra bolaga shunchaki qalam berish va undan harflarni chizishini so‘rash kerak. Harf qanday elementlardan iboratligini muhokama qilib, unga hamma narsani eslab qolishi - tayoq, yarim doira va hakoza o‘rgatish lozim. Avvaliga ularni alohida chizishi mumkin, keyin ularni ulashga harakat qilishni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Avvaliga u noto‘g‘ri va egri chiqadi, lekin sabr bilan kuzatish lozim. Bolalarning har qanday urinishlari uchun maqtab va eng muvaffaqiyatlilarini nishonlash kerak. Qalam bilan yozishni o‘rganish yaxshidir - bu bolaga xatolardan qo‘rqmaslikka yordam beradi. Bolani so‘zlarni yozishga o‘rgatish uchun unga varaqda o‘zini yo‘naltirishga yordam berish muhimdir. Qog‘ozning turli qismlarida, masalan, yuqori o‘rta, pastki o‘ng burchak yoki markazda biror narsa chizishni taklif qilish zarur. Bolalar ko‘rsatmalar bilan qulay bo‘lgandan so‘ng, chiziqlar tushunchasiga o‘tish lozim. Katta oraliqda bir nechta chiziqlar tortish va ulardan biriga chiziqni ‘qoldirib, keyin esa chiziq ustida, chiziq ostida, chiziq bo‘ylab pastga, ikki chiziq yuqoriga biror narsa chizishga taklif qilish kerak. Yozishni grafik faoliyatning eng muhim turlaridan biri sifatida tadqiq etar ekan, M.M. Bezrukix<sup>1</sup> shunday ta’kidlaydi: “Yozuv murakkab psixofiziologik tuzilishga ega bo‘lib, artikulyatsiya va eshitish tahlili, fazoviy idrok, ko‘rish xotirasi va vizual nazorat mexanizmlarini, qo‘l harakatni muvofiqlashtirish va harakatni boshqarish, pertseptiv tartibga solish va lingvistik qobiliyatlar majmuasi (tovushlarni farqlash qobiliyati, tovush-harf tahlili va boshqalar).

Ushbu bosqichdan so‘ng, xarf yozishga o‘tib, bola bilan uning qaysi elementlardan iboratligini va ular qayerda bog‘langanligini muhokama qilishni unutmaslik kerak. So‘zlardagi harflarning bog‘lanishini muhokama qilishda ham xuddi shunday qilish kerak. So‘zlarni yozish misollaridan foydalanib, muhim fikrlarni ko‘rsatish uchun yorqin nuqtalardan foydalanishingiz mumkin. Keyin eng yaxshi harflarni ajratib ko‘rsatish, ayniqsa bolaning e’tiborini qaratish lozim. Uning taraqqiyotini diqqat bilan kuzatib borish, unga yordam berish va rag‘batlantirish muhimdir. Mashg‘ulotdan so‘ng, albatta muhokama qiling: osonmi yoki qiyinmi? Nima yaxshi ishladi? Nima deb o‘ylaysiz? Yana nimada mashq qilishimiz kerak? Bu tarbiyachiga va tarbiyalanuvchi taraqqiyotni baholashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bola harflarning shakllarini o‘rganishi va charchamasligi uchun kuniga 15 daqiqadan bir nechta dars yetarli. Agar biz mashg‘ulotlarni qiziqarli qila olsak, u bolalar yozishga ko‘proq vaqt sarflashni xohlashi mumkin.

## XULOSA

Aynan maktabgacha yoshdagi bolaga qalamni to'g'ri ushlab turish va o'tirishni ko'rsatishni unutmaslik kerak. Ta'lim maydonini bola qulay bo'lishi uchun tashkil qilish, stolda etarli joy borligini hisobga olish va yorug'likning o'ng tomondan tushishini ta'minlash lozim hisoblanadi. Birinchi marta harf yozishga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali vositalarga «To'g'ri o'tir!» plakati, bosma harf shakllari ifodalangan kartonlar, xattaxta, tarbiyalanuvchilar qo'lidan ushlab yozdirish kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o'rgatishda uning bosma shakli ko'rsatilib farqli jihatlari izohlanishi lozim hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko'rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.G'afforova, X. G'ulomova, G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. - T.: „O'qituvchi“, 1996.
2. T. G'afforova, E. Shodmonov, X. G'ulomova. Ona tili (1 -sinf uchun darslik). T.: „Sharq“, 2005.
3. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod). - T.: „O'qituvchi“, 1999.
4. Eshbekova Gulabahor Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish ko'nikmalarini shakllantirish muammolari .SCIENCEPROBLEMS.UZ ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ № 12/2 (3)-202
5. Bezrukix, M.M. Yozishni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan mashg'ulotlar uchun mashqlar / M.M. Bezrukix, S.P. Efimov. - M.: Auris, Iceberg nashriyoti, 1991
6. Eshbekova Gulabahor Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish ko'nikmalarini shakllantirish muammolari .SCIENCEPROBLEMS.UZ ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ № 12/2 (3)-202